

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SAIDMURATOVA MALOHAT BAXTIYAROVNA

**BOLALARDA KITOB O‘QISHGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISHNING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферета диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in
Psychological Sciences**

Saidmuratova Maloxat Baxtiyarovna

Bolalarda kitob o'qishga qiziqishni shakllantirishning psixologik
xususiyatlari..... 3

Саидмуратова Малохат Бахтияровна

Психологические особенности формирования интереса к чтению книг у
детей..... 23

Saidmuratova Malohat Bakhtiyarovna

Psychological features of the formation of interest in reading books in
children..... 44

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 48

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SAIDMURATOVA MALOHAT BAXTIYAROVNA

**BOLALARDA KITOB O‘QISHGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISHNING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2020.2.PhD/P195 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertasiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Zieonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonwt.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Nishanova Zamira Taskarayevna**
psixologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Abdurasulov Rustam Abduraimovich**
psixologiya fanlari doktori, professor

Saliyeva Dilorom Abdullayevna
psixologiya fanlari nomzodi, dotsen

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertasiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021. P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «___»_____kuni soat___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy.Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; E-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertasiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy.Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertasiya avtoreferati 2023 yil «___»_____kuni tarqatildi.

(2023 yil «___»_____dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, psixologiya fanlari
doktori, dotsent

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, psixologiya fanlari
doktori, dosent

N.G‘.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi
o‘rinbosari, psixologiya fan doktori,
dosent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning yuqori sur'atlarda taraqqiy qilishi jamiyat a'zolarining ijtimoiy tafakkuridagi ijobiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq. Jamiyatda yashayotgan har bir insonning ong-tafakkuri sog'lom bo'lar ekan, bunday kishilarning ma'naviy qadriyatlar, san'at, adabiyot, ijtimoiy vaziyat, mol-mulk va boshqa sohalarga nisbatan qarashlarida adekvat munosabat ham ijobiy tomonga yo'naladi. O'zini va dunyoni anglashda kitob, kitobxonlik esa necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyasi, kasb-hunarli va albatta baxtli bo'lishining muhim omilidir. Axborot globallasuvi keskin kuchaygan davrda «...o'qish va kitobga bo'lgan talab pastligining asosiy sababi – yosh avlod uchun ommaviy axborot manbai sifatida ijtimoiy tarmoqlar va internetga berilish tendentsiyasining kuchayishidir. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyada 18-24 yoshdagilarning 3 oy mobaynida o'rtacha 3,56 ta kitobni o'qishlari, 60 yoshdan oshganlarning esa 5,28 ta kitob o'qish uchun o'z vaqtlarini sarflashlari»¹ qayd etilgan. Bu borada kichik maktab yoshidagi bolalarda va o'smirlarda kitob o'qishga qiziqishni shakllantirish masalalari dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida bolaning ta'lim-tarbiyasi va aqliy taraqqiyotida kitobning roli, yoshlarni bolalik davridan kitobga do'st bo'lishi, kitob o'qishini targ'ib qilishda oqilona usullardan foydalanish, ongni yuksaltiradigan bilimlar bilan qurollantirish, ilmga asoslangan istiqbolli va samarali ta'lim berish, bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashni maqsad qilish, mustaqil ravishda turli ilmiy va badiiy manbalardan foydalanishni o'rgatishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada nafaqat kutubxonadan foydalanishda kitobxonlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, balki kitobxonlarning yosh ko'rsatkichi, qiziqishlari, yo'nalganligi, jinsi, faoliyat sohasi, kayfiyati, psixologik xususiyatlari bilan bogliq muammolarini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda aholi, ayniqsa, yoshlar orasida kitobxonlikka bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, kitobxonlikni keng targ'ib etish orqali kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ularning aqliy, madaniy savodxonligini o'sishi orqali inson kapitali sifatini yaxshilashga erishish va oshirish bo'yicha zaruriy-me'yoriy asoslar yaratildi: «... aholining kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini tizimli o'rganib borish,... jamiyatda kitobga bo'lgan munosabatning ijobiy tomonga o'zgartirish, yosh avlodni ma'naviy va intellektual ehtiyojini qondirishda, kitobga oshno bo'lishi muhim o'rin tutmoqda»².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmoni, 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3271-son «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi

¹ <https://literaguru.ru/statistika-chteniya-v-rossii-i-mire/>

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi 781-son Qarori. 2020 y. 14 dekabr

to'g'risida»gi Qaror, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 781-son «2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori, 2020 yil 6 iyuldagi 422-son «Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori hamda boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya ishi muayan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sharq allomalaridan Abu Rayxon Beruniy, Ahmad Donish, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy; ma'rifatparvar shaxs Abdulla Avloniy va boshqalarning asarlarida bolalarda kitob o'qishga qiziqishni rivojlantirish zarurati bo'yicha ilg'or fikrlar berilgan. O'zbek olimlaridan B.U.Mingbayeva, Ch.X.Mirxoliqova, D.A.Muminova, D.M.Malikova, D.I.Xudoyqulov, E.G'.G'oziyev, M.P.Babaxanova, M.Tursunova, S.I.Kambarova, Yo.Qayumxo'jayeva, Z.T.Nishanova va boshqalarning tadqiqotlarida bolalik va o'smirlik davrida kitob o'qishga qiziqishni rivojlantirish muhimligi ko'rsatib berilgan.

Mustaqil Davlat Xamdo'stligi olimlaridan A.A.Abdulina, T.V.Axutina, N.A.Bagdasarova, Ye.L.Grigorenko, O.V.Djeleley, N.Ye.Yegorova, A.A.Leontyev, G.Maransman, L.S.Rubenshteyn, T.A.Razuvayeva, N.N.Svetlovskaya va boshqalar tomonidan kitob o'qishga qiziqish masalalari tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan M.Banaka, Yu.N.Drescher, O.V.Dzhedzheley, Dj.Dunn, P.Kaczmarek, Yu.Nakamura, L.Prizeman va boshqalar tomonidan kitobxonlikga doir masalalar ilmiy tadqiq etilgan.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasion tadqiqot Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan PZ-20170923121-raqamli «Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2018-2020y.).

Tadqiqotning maqsadi bolalarda kitob o'qishga qiziqish shakllanishining psixologik xususiyatlarini empirik jihatdan o'rganish hamda ularda kitobsevarlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

bolalarda kitob o'qishga qiziqishning namoyon bo'lishiga ko'ra yoshga oid individual psixologik xususiyatlarni aniqlash;

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda kitob o'qishga qiziqish shakllanishi boladagi kreativ tafakkurga to'g'ri proporsional rivojlanishini isbotlash;

o'smirlardagi kitob o'qishga qiziqish shakllanishi yoshga oid xususiyatga bog'liq ravishda o'quv motivlarining namoyon bo'lishiga bog'liqligini aniqlash;

o'quvchilarda kitob o'qishga qiziqishni shakllantirish uchun «Kitobdan yaxshi do'st yo'q» kompleks dasturni kiritish samarali ekanligini dalillash.

Tadqiqot ob'yekti sifatida bolalarda kitob o'qishga qiziqishni shakllantirish jarayoni tanlangan bo'lib, Xorazm viloyati Urganch tuman 2-son va 12-son, umumta'lim maktablaridan 114 nafar Urganch shahar 13-son va 21-son umumta'lim maktablaridan 118 nafar, Toshkent shahridagi 49-son umumta'lim maktabi 48 nafar jami 1-4-sinf o'quvchilaridan jami: 146 nafar, o'smir yoshidagi 5-8 sinf o'quvchilaridan 134 nafar tadqiqotga jalb etildi, reshondentlarning umumiy soni 280 nafarni tashkil etdi.

Tadqiqot predmetini boshlang'ich sinf va o'smir o'quvchilarda kitob o'qishga qiziqishni shakllantirishning psixologik mexanizmlari, omillari, xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertasiyada kuzatish, suhbat metodlari, shuningdek mualliflik «Bolaning bo'sh vaqtida kitob o'qish faoliyatini aniqlash» so'rovnomasi, V.A.Borodinoning «Kitob o'qishga qiziqish formulasi» metodi, R.S.Nemovning «Kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkurini o'rganish» testi, N.G.Luskanovanning «O'quv motivini baholash» so'rovnomasi, Jonsonning «Kreativlik» metodikasi, T.D.Duboviskayaning «O'quv motivasiyasining yo'nalganligini tashxis qilish» so'rovnomasi, J.Ravenning intellektning noverbal imkoniyatlarini o'lchash uchun yaratilgan metodikasidan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchlilig darajasi matematik-statistika metodlaridan Pirsonning r-korrelyasiya koeffitsiyenti, Styudentning t-mezoni orqali isbotlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda ifodalangan:

o'quvchilarda kitob o'qishga qiziqishning namoyon bo'lishiga ko'ra, «haqiqiy kitobxon» va «kitobsevar» o'quvchi obrazi shakllanishiga oila a'zolarining kitobga munosabati ta'siri, mutolaa qilishning reflektiv komponentini kuchaytirganligi tufayli yoshga oid individual psixologik farqlanishi mavjudligi dalillangan;

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda kitob o'qishga qiziqish shakllanishi asar qahramonlarini semantik differensiasiyalash va identifikasiyalanishi o'quv motivlarini baholashda ichki motivlarning ustuvorligi ta'minlaganligi tufayli boladagi kreativ tafakkurga to'g'ri proporsional rivojlanishi isbotlangan;

o'smirlardagi kitob o'qishga qiziqish shakllanishi kitobsevarlikning «ong-faoliyat-muloqot» komponentlarini o'zaro integrasiyasi kreativ tafakkurning ijtimoiy munosabatlarga yo'nalganligini kuchaytirganligi tufayli yoshga oid xususiyatga bog'liq ravishda o'quv motivlarining namoyon bo'lishida ijobiy bog'lanish mavjudligi dalillangan;

o'quvchilarda kitob o'qishga qiziqishni shakllantirish uchun «obraz-tushuncha», «obraz-hissiyot» assosiativ tiplarini kitobga nisbatan emosional munosabat orqali rivojlanishiga korreksion-adaptiv ta'sir etish muhimligiga ko'ra «Kitobdan yaxshi do'st yo'q» kompleks kiritish samarali ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bolalarda kitob o'qishga qiziqish va kitobxonlik masalasi bo'yicha dasturiy-uslubiy ta'minoti takomillashtirilgan;

kichik maktab va o'smirlik yoshidagi bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislar psixologik tayyorgarligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy ishlanmalar yaratilgan.

«Bolalarda kitob o'qishga qiziqishni shakllantirishning psixologik xususiyatlari» nomli uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi, avvalo tadqiqot ob'ektlarining maqsadga mos tanlanganligi, ilmiy tekshirish va treninglarda qatnashgan respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, tanlangan metodikalarning validligi va ishonchliligi, olingan empirik miqdorlarning matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, bunda zamonaviy elektron dasturiy vositalar qo'llangani, izlanishlar aniq bosqichlarda bir-birini to'ldiruvchi usullar yordamida amalga oshirilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot davomida shakllantirilgan, ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning bir vaqtda turli yo'nalishlarda amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, qo'lga kiritilgan natijalardan oliy ta'lim muassasalarida «Yosh va pedagogik psixologiya», «Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi», «Psixokorreksiya», «Psixologik xizmat», «Psixologik maslahat», «Ijtimoiy psixologik trening» fanlarini ilmiy manbaalar bilan boyitishda, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar o'tish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, olingan natijalardan amaliy psixologlar, maktab o'qituvchilari, psixologik tashxis, konsultativ markaz mutaxassislari faoliyatida foydalanishlari mumkin. Ishlab chiqilgan korreksion va rivojlantiruvchi dastur kichik maktab yoshidagi va o'smirlik davridagi bolalar bilan guruh va individual tarzda ish olib borishda, kitob o'qishga qiziqishini rivojlantirishda, shuningdek, universitetlarda, pedagogika institutlarida, pedagogika va psixologiya, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim ixtisosligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanmalar yaratishda, ma'ruzalar matni tayyorlashda innovatsion dasturlar ishlab chiqishda, psixokorreksiya, psixologiyana fanlaridan amaliy mashg'ulotlar o'tishda, ota-ona va tarbiyachilar bilan psixologik maorif ishlarini o'tkazish tizimini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bolalarda kitob o'qishga qiziqishni shakllantirishning psixologik xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari asosida:

o'quvchilarda kitob o'qishga qiziqishning namoyon bo'lishiga ko'ra, «haqiqiy kitobxon» va «kitobsevar» o'quvchi obrazi shakllanishiga oila a'zolarining kitobga munosabati ta'siri, mutolaa qilishning refleksiv komponentini kuchaytirganligi tufayli yoshga oid individual psixologik farqlanishi mavjudligi dalillanganligiga oid ilmiy ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yili 18 martdagi 3-son buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Psixologiya o'quv-

ilmiy markazining 2023 yil 18 martdagi 3-son ma'lumotnomasi). Natijada pedagog-psixologlarning o'quvchilarda kitob o'qishga qiziqishini shakllantirishning dinamik va yoshga oid xususiyatlarini prognozlash imkoniyatini takomillashtirishga erishilgan;

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda kitob o'qishga qiziqish shakllanishi asar qahramonlarini semantik differensiasiyalash va identifikasiyalanishi o'quv motivlarini baholashda ichki motivlarning ustuvorligi ta'minlaganligi tufayli boladagi kreativ tafakkurga to'g'ri proporsional rivojlanishi isbotlanganligiga oid ilmiy takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yili 18-martdagi 3-son buyrug'iga asosan «Umumiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yili 18 martdagi 3-son ma'lumotnomasi). Mazkur takliflarning joriy etilishi natijasida pedagog-psixologlarning o'quvchilarida kitob o'qishga qiziqish shakllanish shart-sharoitlari va mexanizmlarini rivojlantirishga oid bilimlarini boyitish imkoniyati paydo bo'lgan;

o'smirlardagi kitob o'qishga qiziqish shakllanishi kitobsevarlikning «ong-faoliyat-muloqot» komponentlarini o'zaro integrasiyasi kreativ tafakkurning ijtimoiy munosabatlarga yo'nalganligini kuchaytirganligi tufayli yoshga oid xususiyatga bog'liq ravishda o'quv motivlarining namoyon bo'lishida ijobiy bog'lanish mavjudligi dalillanganligiga oid ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yili 18 martdagi 3-son buyrug'iga asosan «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yili 18 martdagi 3-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak pedagog-psixolog mutaxassislarni kitob o'qishga qiziqishni shakllantirish psixologiyasiga oid o'quv mashg'ulotlari mazmunini takomillashtirishga erishilgan;

o'quvchilarda kitob o'qishga qiziqishni shakllantirish uchun «obraz-tushuncha», «obraz-hissiyot» assosiativ tiplarini kitobga nisbatan emosional munosabat orqali rivojlanishiga korreksion-adaptiv ta'sir etish muhimligiga ko'ra «Kitobdan yaxshi do'st yo'q» kompleks usulni kiritish samarali ekanligi dalillanganligiga oid ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yili 18 martdagi 3-son buyrug'iga asosan «Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya» moduliga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yili 18 martdagi 3-son ma'lumotnomasi). Mazkur modelning joriy etilishi natijasida bo'lajak psixolog kadrlarning o'quvchilarda kitobsevarlikni rivojlantirish, borasidagi amaliy ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida «Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya» o'quv fani doirasidagi mavzular mazmuni va o'quv uslubi majmua takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining sinovdan o'tkazilishi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestasiya komissiyasi tomonidan tavsiya qilingan ilmiy jurnallarda 4ta (3ta respublika jurnallari, 1 ta xorij jurnali) va 1ta uslubiy qo'llanma nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining hajmi ilovalardan tashqari 127 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot metodlari, ob'yekti va predmeti ko'rsatilgan, uning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, nazariy va amaliy ahamiyati, ishonchliligining asoslanishi, ularning amaliyotda tatbiq etilishi, aprotasiyadan o'tkazilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion tadqiqotning tuzilishi yuzasidan ma'lumot keltirilgan.

Dissertasiyaning birinchi bobi «**Kitob o'qishga qiziqish psixologik tadqiqot predmeti sifatida**» deb nomlanadi, unda Sharq mutaffakirlari, xorij va o'zbek psixologlari tomonidan bilim olish, kitob o'qishga qiziqish, bilim olish motivlari muammolari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar nazariy tahlil qilingan.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi «**Bolalarda kitob o'qishga qiziqishning empirik o'rganilishi**» deb nomlanadi. Ikkinchi bobning birinchi bo'limida tadqiqotning metodologik asosi bo'lmish tamoyillar, yondashuvlar va metodikalari tavsiflangan.

Tadqiqotda bolalarning qanday janrdagi kitoblarni o'qishlari va kitoblarni qayerdan olib o'qishlarini aniqlash vazifasini belgilangan. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun «Bolaning bo'sh vaqtida kitob o'qish faoliyatini aniqlash» mualliflik so'rovnomasidan foydalandik.

So'rovnomadagi uchinchi savol «Senga quyidagi janrdagi kitoblar yoqadi?» savoliga quyidagicha javoblar olindi. Bu savolga ko'plab bolalar «ertak kitob» deb javob berishdi.



1- rasm. Bolalarning qanday janrdagi kitoblarni mutolaa qilishi haqidagi fikrlari

1-rasmdan ko‘rishimiz mumkin, o‘quvchilar ko‘proq 37% ertak kitoblarni o‘qishni yaxshi ko‘rishadi, 26% sarguzasht kitoblarni o‘qishni yaxshi ko‘rishadi, muhabbat haqidagi kitoblarni 19% o‘quvchilar tanlagan. 6 % bolalar kitoblarni kayfiyatimga qarab o‘qiyman deb javob berishgan. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining asosiy faoliyati o‘qish, bilim olish, o‘quvchilarda o‘qish orqali tafakkur, nutq, diqqat, xayol, xotira shakllanadi. Bu yoshda o‘quvchilar ko‘proq ertak kitoblarni va sarguzasht kitoblar, muhabbat haqidagi kitoblarni o‘qishni yoqtirishadi, chunki bolalar ertaklar yaxshiliklar bilan yakunlanishini xohlashadi. Bolalar ertak va sarguzasht kitoblarni sevib o‘qishlari tadqiqot davomida aniqlandi.

So‘rovnomaning to‘rtinchi savoli bolalar kitoblarni qayerdan olib o‘qishlari haqida edi. Bu savolga o‘quvchilar ko‘proq 39,17 % bolalar maktab kutubxonasidan degan javobni berishgan.


1-jadval.

Bolalarning kitoblarni qayerdan olib o‘qishi haqidagi fikrlari, n=280

Men qiziqadigan kitoblarni..... olaman	%
a) maktab kutubxonasidan	39,17
b) mahalla kutubxonasidan	5,27
v) tuman kutubxonasidan	8,05
g) internetdan	15,83
d) do‘stlarimdan	12,78
e) ota-onam sotib olib beradi	18,9
JAMI	100 %

18,9% bolalar ota-onam sotib olib berishadi, deb javob qaytarishgan bo‘lsa, 15,83% bolalar internetdan, 12,78 % bolalar do‘stlarimdan degan javoblarni oldik. Bu javoblardan shunday ma‘lumotga ega bo‘ldik-ki, bolalarning yarmisi kitoblarni maktab, mahalla, tuman kutubxonalaridan olishlari aniqlandi. Demak, biz kutubxonalaridagi kitoblarni ko‘paytirishimiz, ayniqsa ertak va sarguzasht kitoblarning miqdorini oshirishimiz maqsadga muvofiq ekan.

Tadqiqotda bolalarga kitob o‘qishda oila a‘zolaridan kimlar yordamlashishi va qaysi yosh davrida kitob o‘qishga qiziqish yuqori ekanligini aniqlash vazifasi belgilangan. So‘rovnomadagi yettinchi savol bolalarga kitob o‘qishda kimlar yordam berishi haqidagi ma‘lumot muhim ekanligi bois, natijalar quyidagi rasmda aks ettirilgan.



2-rasm. Bolalarga kitob o‘qishda yordamchi oila a‘zolari.

Bolalarga kitob o‘qishda 47 % bobo-buvilar, 22 % aka-opalar, 31 % ota-onalar yordamlashishlari aniqlandi. Bolalarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari oiladan boshlanishi ularning, bobo-buvi, ota-ona, aka-opa ekanligi namoyon bo‘ldi, bu balki bizning qadriyatlarimiz bilan bog‘liq holat deb tushunishimizga imkon beradi.

O‘quvchilarining kitob o‘qishga qiziqish darajasini aniqlash uchun V.A. Borodinoning «Kitob o‘qishga qiziqish formulasi» metodikasini o‘tkazdik. Natijalar quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

2-jadval.

O‘quvchilarida kitob o‘qishga qiziqishning namoyon bo‘lishi n=146

O‘quvchilar	Boshlovchi	O‘rtacha o‘quvchi	Kitobsevar	Haqiqiy kitobxon
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari	38,7 %	31,4 %	19,6 %	10,3 %

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitob o‘qishga qiziqish darajasi 38,7 % boshlovchi, 31,4 % o‘rtacha, 19,6 % kitobsevar va 10,3 % haqiqiy kitobxon darajasida ekanligi aniqlandi.

«Boshlovchi» o‘quvchilar 0-5 ball to‘plagan bolalardir. O‘qish bo‘yicha mutaxassilarimizning daraja tizimida sizga dastlabki 4 daraja berildi. Oldinda hamma narsa bor.... qancha kitob o‘qish kerak! Sinab ko‘ring va ehtimol siz ham shunday bo‘larsiz hammasi yaxshilanadi, axir, har xil kitoblar bor.

«O‘rtacha o‘quvchi» 6-14 ball to‘plagan bolalardir. Siz hammadan yomon emassiz. Shuning uchun bizning darajalar tizimida siz uchun tanlanmagan darajani osongina qo‘yishingiz mumkin. Boshlang‘ich emassiz. Siz kitoblarga qiziqasiz. Sizni aynan nima qiziqtiradi? Keling birga gaplashaylik.

«Kitobsevar» 15-18 to‘plagan bolalardir. Endi siz tengdoshlaringiz orasida ikkinchi o‘ringa loyiqsiz, kitobsiz xuddi qo‘lsiz kabi his qilasz. Davom ettiring va professional bo‘ling.

«Kitobxon» 19 va undan ko‘p ball to‘plagan bolalardir. Birinchi toifadagi kitob o‘qish bo‘yicha haqiqiy «kitobxon» siz o‘qish olamida nafaqat o‘zingizning shaxsingiz, balki siz allaqachon ko‘p narsalarni o‘rgandingiz, lekin siz hatto do‘stlaringizga yangi kitoblarni tanlashingizda maslahat berishingiz mumkin.

Tadqiqotda navbatdagi vazifa sifatida kitob o‘qishga qiziqish va o‘quv motivasiyasi, intellekt, tafakkur operasiyalari, ijodiylik orasidagi bog‘lanishlarni o‘rganishni belgilagan edik. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun Pirson korrelyatsiya koeffitsentidan foydalandik.

Quyidagi 3-jadvalda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitob o‘qishga qiziqish va tafakkur operasiyalari orasida musbat bog‘lanish aniqlandi ($r=0,25$; $p \leq 0,1$). Bolalarda kitob o‘qishga qiziqish ortgani sayin boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkur operasiyalari ortib boradi. Bolalar har xil kitoblarni o‘qiganlari sayin analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi tafakkur operasiyalari ortib boradi. Ta‘lim va maktabda beriladigan bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida, kuzatuvchanlik, xotira va xayol o‘sib borishi bilan kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkuriga material bo‘ladigan narsalar doirasi kengaya boradi, bolalarda mantiqiy tafakkur va tanqidiy fikrlash o‘sib boradi. Ta‘lim jarayonida bolaning tafakkuri katta o‘sish yo‘lini — konkret tafakkurdan abstrakt - nazariy tafakkurga o‘sish yo‘lini bosib o‘tadi.

3-jadval.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda kitob o‘qishga qiziqish va motivasiya, intellektual xususiyatlar o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik $n=146$

<i>Metodikalar</i>	Kitob o‘qishga qiziqish formulasi metodikasi	Kichik maktab yoshidagi bola tafakkuri	O‘quv motivini baholash	Kreativlik	Tashqi motivasiya	Ichki motivasiya	Raven
Qiziqish	1						
Tafakkur	0,25***	1					
O‘quv motivi	0,37***	-0,09	1				
Kreativlik	0,40***	0,22**	0,25**	1			
Tashqi motiv	0,07	0,17	0,06	0,02	1		
Ichki motiv	0,60***	0,05	0,24**	0,30***	0,05	1	
J.Raven	0,30***	0,11	0,08	0,22**	0,09	0,32***	1

Izoh: * $r \leq 0,10$; ** $r \leq 0,05$; *** $r \leq 0,01$.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning tafakkuri hali ham amaliy, konkret tafakkur bo‘ladi, lekin ta’lim jarayonida bolalarning bunday konkret tafakkuri, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning konkret tafakkuriga qaraganda, murakkabroq va mazmunliroq bo‘lib qoladi, ulardagi fikrlash jarayonlarining hammasi takomillasha boradi. Maktabda o‘quvchi bola tobora murakkabroq narsalarni va o‘zi idrok qilayotgan narsalarni hamda hodisalarnigina emas, balki shu bilan birga, tasavvur qilayotgan narsalar va hodisalarni ham bir-biriga taqqoslashni, analiz va sintez qilishni o‘rganib oladi.

Quyidagi jadvaldan ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv motivlarining oshishi va kitob o‘qishga qiziqish orasida ham musbat bog‘lanish aniqlandi ($r=0,37$; $p\leq 0,01$). Bolalarda o‘quv motivatsiyasi qanchalik kuchli bo‘lsa, kitob o‘qishga qiziqish ham shunchalik kuchli bo‘ladi. Kitob o‘qishga qiziqish va kreativlik orasida ham ijobiy bog‘lanish kuzatildi ($r=0,40$; $p\leq 0,01$). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitob o‘qishga qiziqish qanchalik kuchli bo‘lsa, ularda ijodiylik shunchalik kuchli bo‘ladi.

Ijodkorlik – inson faoliyatining turli holatlarida paydo bo‘ladigan jarayondir. Qiziqish, ilhom, intilish ijodkor insonning ongida paydo bo‘lishidan tortib, to namoyon bo‘lishigacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga oladi. Shaxsning ijodiy faoliyati va ehtiyoji faoliyatda yangi, ilgari maqsad qilib qo‘yilmagan bunyodkorlik intilishini bildiradi. Yuqorida keltirib o‘tganimizdek, har bir shaxsning ijodkorlik fazilatlarini shakllanishi aynan maktab ostonasidan boshlanadi. Zero-ki, maktabda turli salohiyat va qobiliyatga ega bo‘lgan bolalar ta’lim oladi. Bolalardagi ijodiy faoliyatning har qanday kurtaklari ta’lim-tarbiyadan tashqarida, faoliyatdan tashqarida kamol topa olmaydi. Ta’lim-tarbiya jarayonida kitobxonlik, mustaqil fikrlash orqali bolalarda yashirin iste’dodlarni yuzaga chiqarish, kichik maktab yoshidan boshlab o‘z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish - kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o‘tkir zehni, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi bo‘lib hisoblanadi.

Bolalarda kitob o‘qishga qiziqish bilan ichki motivatsiya orasida ijobiy munosabat namoyon bo‘ldi ($r=0,60$; $p\leq 0,01$). Ichki motivatsiya «ruh uchun» o‘qishni tavsiflaydi. Bunday o‘qishning asosiy mezonini zavq olishdir, kitob o‘qish jarayonining o‘zi bolaga qiziq. Bunday o‘qishning muhim tarkibiy qismi o‘quvchining o‘zi ijodi (tasvirlar, fikrlarning tug‘ilishi, qahramon bilan identifikatsiya qilish va boshqalar), ya’ni badiiy so‘zga o‘ziga xos tarzda javob berish qobiliyatidir. Bunday o‘qish estetik va ichki yo‘nalishga ega, lazzatlanish manbai sifatida kitobga ongli ehtiyoj namoyon bo‘ladi. Albatta, tashqi va ichki motivlar bir nuqtada kesishmaydi, deb aytish qiyin. Shunday qilib, masalan, o‘qish o‘qituvchining topshirig‘i (tashqi motivatsiya)ni bajarib, bola maktab dasturidagi asarni o‘qib zavqni yaxshi his qilishi mumkin (ichki motivatsiya). Bola kitob o‘qish orqali nafaqat zavq oladi, balki rivojlanadi, dunyoni o‘rganadi, madaniy jihatdan o‘sib boradi (tashqi motivatsiya). Bundan tashqari, har qanday yoshda to‘g‘ri tanlangan kitob terapevtik ta’sirga ega, ko‘p aqliy fazilatlar va emosional intellektning rivojlanish manbaidir.

Bolalarda kitob o‘qishga qiziqish bilan J.Raven metodikasi orasida ham musbat bog‘lanish aniqlandi ($r=0,30$, $p\leq 0,01$). Kitob o‘qishga qiziqishi kuchli bolalarda

ko'rgazmali obrazli tafakkur ham kuchli bo'lar ekan. Ko'rgazmali obrazli tafakkur yordamida o'qish tezligining rivojlanishi quyidagi olimlar tomonidan o'rganilgan: R. Arnxaym, D. Braun, Y. R. Valkman, G. I. Malixina va boshqalar. Ko'rgazmali obrazli tafakkurdan foydalanmasdan tezda o'qishga o'rgatilgan bolalarning natijalarini tadqiq etish, tez o'qish mexanik jarayon degan xulosaga olib keldi, natijada bola matn tarkibini eslay olmaydi. «Tez o'qish» atamasining ta'rifi va yodlangan ma'lumotlarning amaliy natijalari o'rtasida tafovut mavjud.

Ko'rgazmali obrazli tafakkur - bu g'oyalar nuqtai nazaridan muammoli vaziyatni modellashtirish va hal qilishga asoslangan fikrlash tarzidir. Ko'rgazmali obrazli tafakkurni shakllantirish bosqichma-bosqich jarayondir. Matnni, o'quv materialini qayta hikoya qilish har bir insonning individual xususiyatidir va uni so'zma-so'z takrorlash mumkin emas, chunki muloqot jarayonida odam turli xil iboralardan foydalanadi. O'quv jarayonida ko'rgazmali obrazli tafakkurdan foydalanish (diagrammalar, chizmalar, grafiklar, eskizlar, hajmli modellar, xaritalar) qismlar va ob'yektlarning o'zaro bog'liqligini shakllantirishga yordam beradi, bolaga so'zning tovush tarkibini tahlil qilishni, qism va butunning bo'linishini, shuningdek atrofdagi dunyoni yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur va kreativlik orasida musbat bog'lanish aniqlandi ($r=0,22$; $p\leq 0,05$). Bolada tafakkur operatsiyalari qanchalik yuksak rivojlangan bo'lsa, ijodiylik ham shunchalik yuqori namoyon bo'ladi. Muammolarni hal qilish jarayonida tafakkur va ijodkorlikning o'zaro bog'liqligi jarayon va struktura kategoriyalari orqali asoslanadi. Tafakkur aloqa va faoliyat harakati kontekstida ko'rib chiqiladi, bu esa fikrlashni tavsiflashda uning ijodiy tabiatini hisobga olishga imkon beradi. Ijodkorlik fenomeni o'ziga xos fikrlashdan mavhum fikrlashga o'tish jarayonida refleksiya mexanizmlari bilan o'zaro bog'liq holda o'rganiladi. Tafakkur va ijodkorlik o'rtasidagi bog'liqlik topshiriqlarni hal qilish turlari nuqtai nazaridan belgilanadi va individual shaxslarning sub'yektiv qobiliyatlariga, ularning bilimlari va faoliyat ko'nikmalariga bog'liq.

Kreativlik va o'quv motivi orasida ham ijobiy bog'lanishni kuzatdik ($r=0,25$; $p\leq 0,05$). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish motivi qanchalik kuchli bo'lsa, ular o'quv topshiriqlarini bajarishda shunchalik ko'p ijodiy yondashadilar. O'qishga qiziqqan o'quvchilar o'qituvchi bergan topshiriqlarni o'ziga xos usul bilan, o'zgacha, original bajarishga harakat qiladilar. Zamonaviy maktab o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ta'minlashi kerak va boshlang'ich maktab yoshi bolaning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun sezitiv davrdir, chunki maktabgacha bolalik davridan keyin bolaning dunyosi kengayadi, uning atrofidagi ijtimoiy makon kattalashadi, ko'plab voqealar, narsalar va hodisalarga qarash o'zgaradi, shu bilan bola dunyoga o'zining o'ziga xos qarashlariga ega bo'ladi.

Ushbu davrda bolalarni o'qitish uchun ijobiy motivasiyani shakllantirish imkoniyatini qo'ldan boy bermaslik juda muhimdir, bu nafaqat ta'lim olishning keyingi bosqichlarida ular ta'limining muvaffaqiyatini, balki shaxsni shakllantirishning barcha jarayonlarini rivojlantirish samaradorligini ham belgilaydi: kognitiv faoliyat, ijodkorlik, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiya, hissiy va ixtiyoriy soha va boshqalar.

Ichki motiv va o'quv motivi orasida ham ijobiy bog'lanishni kuzatdik ($r=0,24$; $p\leq 0,05$). Bolalarda ichki motiv qanchalik kuchli bo'lsa, o'quv motivi ham ularda shunchalik kuchli bo'ladi. Ichki motivatsiya shaxsiy qiziqish, qiziquvchanlik, qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Bunday ichki motivatsiya tashqaridan rag'batlantirilmasa-da, bolaning qiziqishlarini mustahkamlaydi va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. O'z-o'zini determinatsiya qilish nazariyasi ichki va tashqi motivlarning ta'sirini o'rganadi. O'z-o'zini determinatsiya qilish nazariyasi va uning tarkibiy qismlarini taqqid etish ta'lim jarayonini shunday tashkil etish imkonini beradiki, o'quvchilarda kuchli motivatsiya hosil bo'lib, o'zlashtirishda yaxshi natijalar ko'rsatadilar.


Kreativlik va ichki motiv orasida musbat bog'lanish aniqlandi ($r=0,30$; $p\leq 0,01$). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ichki motivatsiya qanchalik kuchli bo'lsa, unda ijodiy yondashuv, topshiriqni hech kimnikiga o'xshamagan, original qilib bajarish istagi shunchalik kuchli bo'ladi. Kreativlik - bu potensial, shaxsning ichki resursi bo'lib, uning ijodiy namoyon bo'lishiga yordam beradigan ma'lum bir aqliy va shaxsiy fazilatlar to'plamini qamrab oladi. Kreativlik shaxsning ijodiy qobiliyatlari sifatida qaraladi; an'anaviy fikrlash shakllaridan chetga chiqadigan g'oyalarni yaratish qobiliyatidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ko'rgazmali obrazli tafakkur va kreativlik orasida musbat bog'lanish aniqlandi ($r=0,22$; $p\leq 0,05$). Bolalarda ko'rgazmali obrazli tafakkur qanchalik kuchli shakllangan bo'lsa, ijodiylik ham shunchalik kuchli namoyon bo'ladi. Chunki bunday bolada ko'rgazmali obrazli tafakkur kuchli rivojlangan bo'lgani uchun, predmetlar orasida hech kim ko'rmagan bog'lanishlarni, aloqalarni topib, yangi mahsulot yaratishga harakat qilishadi.

Bolalarda J.Raven metodikasi va ichki motivatsiya orasida ham musbat bog'lanish aniqlandi ($r=0,32$; $p\leq 0,01$). Bolalarda ichki motivatsiya qanchalik kuchli bo'lsa, ko'rgazmali obrazli tafakkur ham shunchalik kuchli bo'ladi. Ko'rgazmali obrazli tafakkurni rivojlantirishning intensiv davri boshlang'ich maktab yoshidagi davrga to'g'ri kelishi va o'rta maktab yoshida ham davom etishi isbotlangan. Ammo boshlang'ich maktab yoshi ko'rgazmali obrazli tafakkurni rivojlantirishda senzitiv davr hisoblanadi. Bu qonuniyatdir, chunki bu yosh ko'rgazmali funksiyalarning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, 13 yoshgacha davom etadi.

Boshlang'ich va o'rta maktab yoshidagi maktab o'quvchilarida tafakkurni rivojlantirishdagi ushbu qonuniyatlar boshlang'ich maktab yoshining oxiriga kelib, o'rta maktab yoshining oxiriga nisbatan mustaqil ravishda bajarilgan to'g'ri topshiriqlar sonining ko'payishi, shuningdek, kam vaqt sarflab tez topishda namoyon bo'ladi.

